

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI  
IJTIMOIY - MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTIDA ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.12.2022.F/Ss.135.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**IJTIMOY - MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**MAMATOV MAXMUT**

**YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY  
TARAQQIYOT TAMOYILLARI – BARKAMOL AVLODNI  
TARBIYALASH OMILI**

**09.00.08 – Ma'naviy tarbiya**

**Falsafa fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации**

**Content of the abstract of doctoral dissertation**

**Mamatov Maxmut**

Yangilanayotgan O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalashomili.....3

**Маматов Махмут**

Принципы духовного развития обновленного Узбекистана – фактор воспитания гармоничного поколения .....37

**Mamatov Makhmut**

The principles of spiritual progress of renewing Uzbekistan – the factor in formation of harmoniously developed generation .....73

**E’lon qilingan ishlar**

Список опубликованных работ  
List of published works .....78

**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI  
IJTIMOIY - MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTIDA ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.12.2022.F/Ss.135.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**IJTIMOY - MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**MAMATOV MAXMUT**

**YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY  
TARAQQIYOT TAMOYILLARI – BARKAMOL AVLODNI  
TARBIYALASH OMILI**

**09.00.08 – Ma'naviy tarbiya**

**Falsafa fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Fal165 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy - ma‘naviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz ( rezyume)) Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy - ma‘naviy tadqiqotlar instituti veb-sahifasida (oyina.uz) va “Ziyonet” Axborot ta‘lim portalida (www. ziyonet .uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Nazarov Qiyomiddin Normirzayevich**  
falsafa fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**To‘ychiyev Berdqul To‘raqulovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Aliyev Bekdavlat Begaliyevich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Musayev Faxriddin Abdusattorovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent Tibbiyot Akademiya**

Dissertatsiya himoyasi Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.12.2022.F/Ss.135.01-raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 28-sentabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani Bobur ko‘chasi, 9 – uy, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy -ma‘naviy tadqiqotlar instituti, 3-qavat, 307-xona (anjumanlar zali) Tel.: (998) 55-503-41-90.

Dissertatsiya bilan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy -ma‘naviy tadqiqotlar institutining Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (24-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani Bobur ko‘chasi, 9–uy. Tel.: (998) 55-503-41-90, Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy - ma‘naviy tadqiqotlar instituti Ma‘muriy binosi, 3–qavat, 307 - xona (anjumanlar zali).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 14-sentabr kuni tarqatildi.  
(2023-yil 14-sentabrdagi № 6-raqamli reyestr bayonnomasi).



## **KIRISH (falsafa fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Disseptatsiya mavzucining dolzarbligi va zarurati.** Jahon olimlari bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash omillari orasida iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jabhalar bilan birga, ma'naviy hayot mezonlari, bu boradagi faoliyat yo'nalishlari ham nihoyatda muhim, ekanligiga katta e'tibor qaratmoqdalar. Xalqaro miqyosda qabul qilingan ko'plab hujjatlarda ushbu sohaga alohida ahamiyat qaratilgan va qaratilmoqda hamda bunday ijobiy yondashuv mazkur yo'nalishdagi amaliy faoliyat va ilmiy izlanishlarning tarkibiy qismiga tobora ko'proq aylanib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning ma'naviy hayoti va yoshlar kamoloti bilan bog'liq masalalar dialektikasining jahon miqyosida qanday namoyon bo'layotgani, mazkur jarayonning ko'lami va samaradorligi darajasini aniqlashga doir tadqiqotlarning ahamiyatli ekanidan dalolat bermoqda.

Dunyoning eng yetakchi ilmiy muassasalari, atoqli olimlar va tadqiqotchilarning diqqati esa, ushbu sohada bugungi kunning quyidagi dolzarb mavzularga, jumladan, globallashtirish sharoitida yoshlar tarbiyasida ma'naviy omillar ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasini ilmiy tashkillashtirishda ilg'or davlatlar tajribasini o'tganish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash va uni optimallashtirish, bu borada tizimli ish olib borish va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotda kreativ va ta'sirchan usullarni qo'llash, yosh avlod ongini buzg'unchi g'oyaviy tahdidlardan asrash, milliy madaniyat va qadriyatlarga mensimay qarash kabilarga murosasiz bo'lish; siyosiy va mafkuraviy jarayonlarni monitoringlash va prognozlashtirish, terrorizm, aqidaparastlik, narkobiznes kabi chegarabilmas jinoyatlarga qarshi xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, yoshlarda milliy totuvlik va diniy bag'rikenglik fazilatlarini mustahkamlash, mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish asosida sohani yangi bosqichga olib chiqish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarga doir kamchiliklarni bartaraf etishga ilmiy jihatdan yondashish, ijtimoiy-ma'naviy muhitning ijobiy barqarorligini saqlash, ma'naviy targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil qilishda aholining yosh, hududga va kasbiga doir xususiyatlarini hisobga olish mexanizmlarini ishlab chiqishga doir tadqiqotlar va ularning natijadorligida alohida e'tibor qaratmoqda.

Umuminsoniyatga xos bo'lgan ushbu zamonaviy zarurat va ob'ektiv jarayon, barcha mamlakatlar qatori, O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti va istiqbolini belgilaydigan tamoyillari hamda amaliy faoliyat dasturlarini yaratish va ularni amalga oshirish muhim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yurtimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, uchun ushbu masalaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanini nazarda tutib, alohida ta'kidlagani kabi: "Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini izchil isloh qilmoqdamiz. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri

yo‘ldan adashish bo‘ladi”<sup>1</sup>. Ushbu jarayonning jamiyat ma‘naviy taraqqiyot tamoyillarida aks etishi, uning har bir yo‘nalishi va turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning qadr - qimmatini va amaliy natijalarini izchil o‘rganish, bu bilan bog‘liq masalalarni falsafiy fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilish vazifalari ham nihoyatda dolzarb mazmun kasb etmoqda.

Shu ma‘noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilda chop etilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmonlari, 2019-yil 8-apreldagi F-5465-son “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi “Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 340-son qarori va mavzuga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bu borada muhimdir. Jamiyat ma‘naviy taraqqiyot tamoyillariga xos tadrijiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini maxsus tadqiqot ob‘yekt sifatida tadqiq qilish maqsad qilib olingan mazkur dissertatsiya ana shu hujjatlarning amalga oshishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>2</sup>. Sharq mamlakatlarida “ma‘naviyat” tushunchasi ko‘proq din va axloq majmui sifatida idrok etiladi va bu boradagi jabhada ushbu omillarning o‘rni va roli ustuvorlik qiladi, deb qaraladi. Ammo G‘arb davlatlarida esa demokratiya tamoyillari “ma‘naviyat” uchun asos hisoblanadi. Shu jihatdan, mavzuimiz yo‘nalishida, ayniqsa, 2002 - yilda AQSH (Chikago)da Dunyo dinlari Parlamenti forumi tomonidan “Global axloq to‘g‘risida Deklaratsiya” qabul qilingan. Mazkur deklaratsiyaga nemis olimi Gans Kyungning qarashlari asos bo‘lgan. Hozirgi davrda YUNESKOning fan va texnikaning axloqiy muammolari bo‘yicha Komissiyasi shafeligida jahon olimlari tomonidan ishlab chiqilgan “Kosmosni o‘rganish axloq Kodeksi”, “Bioetikaning

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. - 457 бет

<sup>2</sup> Диссертация мавзуси бўйича илмий тадқиқотлар шарҳи:<https://www.wilsoncenter.org/>,  
<https://www.ucis.pitt.edu/>, <https://www.toyo.ac.jp/site/acri/>, <http://crcas-areastudies.in/areastudies/>,  
<http://fsi.stanford.edu/>, <http://www.iacd.or.kr/>, <http://subsite.icu.ac.jp/research/iacs-en/>,  
<http://www.iaas.msu.ru/index.php/ru/>, <https://www.ivran.ru/>, <http://www.uzhistory.uz/>, <http://www.ifes-ras.ru/>.  
<https://www.iaaw.hu-berlin.de/>; <https://www.indiana.edu/>; <https://www.soas.ac.uk/>; <https://www.cambridge-centralasia.org/>; <https://www.oaaw.ac.at/iran/>; <https://www.gwu.edu/>;

umumiy normalari to'g'risida Deklaratsiya", "Olimlar axloq Kodeksi", "Atrof - muhit axloq Kodeksi" kabilar zamonaviy jamiyatlarda ma'naviy rivojlanish va axloqiy taraqqiyot tamoyillari belgilab berilgan muhim xalqaro hujjatlar hisoblanadi<sup>3</sup>.

Jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, ma'rifiy va madaniy rivojlanishi bilan bog'liq masalalar jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, V.Vilson xalqaro tadqiqot markazi (Woodrow Wilson International center for scholars, Washington), Stanford yetakchi tadqiqot universiteti (Stanford Universities premier research institute for the study of International Affairs, USA), Pitsburg madaniy taraqqiyotni o'rganish markazi (Center for International Studies University of Pittsburgh), Hindistondagi J.Neru universiteti Markaziy Osiyoni tadqiq etish markazi (Central Asian Studies, Jawaharlal Nehru University), Tokio universiteti qoshidagi Osiyo va Afrikani o'rganish tadqiqot instituti (Research Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa at the Tokyo University of Foreign Studies), Osiyoni tadqiq etish instituti (Asia Research Institute (Janubiy Koreya) kabilarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni alohida ta'kidlash joiz.

MDH doirasida, ya'ni sobiq ittifoq o'rnida shakllangan davlatlar muassasalari orasida Rossiyaning Moskva davlat universiteti, Sankt-Piterburg universiteti, Novosibirsk universiteti, Ukrainadagi Kiyev va Belorussiyadagi Minsk davlat universiteti, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi qo'shni davlatlardagi ilm va ta'lim muassasalarida ham dissertatsiyamiz mavzuiga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, qayd etilgan tadqiqotlarda ushbu mavzuga tegishli bo'lgan masalalarning ba'zi tomonlari tahlil qilingan bo'lsa-da, ammo uning ijtimoiy falsafa bilan bog'liq umumiy qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari, bugungi jamiyatimiz ma'naviy taraqqiyot tamoyillarini ta'minlaydigan omillar va yo'nalishlar majmui alohida dissertatsiya mavzusi sifatida maxsus o'rganilmagan. Dunyoda taraqqiy etayotgan mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham ma'naviy taraqqiyot tamoyillari barkamol avlodni tarbiyalash omiliga qaratilgan muhim ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti, Tarix instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi). O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga astoydil harakat qilinayotgan bugungi globallashuv davrida, jamiyat ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda asosiy tayanch va suyanch bo'ladigan ijtimoiy - siyosiy mezonlarga mos keluvchi barkamol avlodni tarbiyalash ehtiyoji ham mavzuni maxsus tadqiqot obyekti sifatidagi konseptual jihatlarini chuqur tahlil qilish zaruriyati mavjudligini ko'rsatadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** "Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026 - yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston

---

<sup>3</sup> Қаҳҳорова М. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва ечимлар. Фалсафа фанлари доктори илмий даражаси учун диссертация автореферати. –Т.: ЎзМУ, 2012. –Б.4-5.

Respublikasi Prezidentining Farmoni hamda u bilan tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasi jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida islohotlar va yangilanishlar jarayonini yanada jadallashtirdi<sup>4</sup>.

Jahon falsafasida hozirgi zamon jamiyatining ma'naviy taraqqiyot tamoyillari va barkamol avlodni tarbiyalash omili bilan bog'liq masalalarni o'rganishda ko'proq din, ma'rifat va axloq masalalariga ahamiyat bergan Z.Freyd, E.Fromm, Karl Otto Apel, Yurgen Xabermas, Talbot Parsons, Gans Yones, Djon Roulz, Marta Nussbaum, Djon Xemouel, Gans Kyung, Fredrix Dallemar kabi olimlarning qarashlari ham ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida asosan global etika asoslari va hozirgi zamon etika muammolarini ilmiy va amaliy jihatdan hal qilish masalalari jamiyat ma'naviy taraqqiyot tamoyillarining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida tadqiq etilgan.

G'arb mamlakatlarining qator universitetlari, ilmiy – tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarida faoliyat olib borayotgan Sh.Ayzenshtadt, E.Toffler, M.Xorkxaymer, X.Arendt, A.A.Zinoviyev, B.N.Bessonov, A.Maya, YE.N.Starikov va boshqa mualliflarning asarlarida totalitar va avtoritar rejimlarning jamiyat ma'naviy taraqqiyot tamoyillariga ta'siri, bu jabhadagi umumnazariy masalalar, totalitar tuzilmalarning ijtimoiy jarayonlar bilan aloqadorligi va ularning mafkuralari aks etishi bilan bog'liq mavzular keng va atroflicha o'rganilgan.

Shuningdek, K.Manngeym, J.Sorel, M.Eliade kabi olimlarning asarlarida ma'naviy taraqqiyot tamoyillarining g'oyaviy asoslari va mafkuraviy sohalar, turli maqsad va muddaolarni ko'zlaydigan nodavlat tuzilmalar, totalitar va avtoritar rejimlar hamda diniy tashkilotlarning bu boradagi faoliyatini o'rganishga qaratilgan nazariya va konsepsiyalarning mazmun - mohiyatiga alohida ahamiyat berilgan<sup>5</sup>.

XX asr oxiri va asrimiz boshlarida chet ellarda ma'naviy taraqqiyot tamoyillari va uning amalga oshish mexanizmlari bilan bog'liq turli masalalar tahlil etilar ekan M.Veber, R.Joe Feagin, E.Aronson, R.Brown, O.Horowitz, H.Lasswell<sup>6</sup> kabi olimlarning asarlarini ham alohida ta'kidlash lozim.

MDH mamlakatlarida ham barkamol avlodni tarbiyalash borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, P.I.Babochkin, A.D.Plotnikov, S.A.Bikov, L.A.Juravleva, O.I.Ivanov, I.G.Vasilyev, S.N.Ikonnikova, A.I.Kovaleva, V.A.Lukov, V.V.Nechayev, G.V.Kupriyanova, V.I.Chuprov, Y.Zubov singari Rossiya olimlari tomonidan yoshlar sotsiologiyasi, ularning etnik va estetik qarashlari hamda **muxolifat mafkuralari, yoshlar siyosati amaliyoti, jamiyat rivojiga yoshlar tashkilotlarining ijobiy va salbiy ta'siri masalalari, yoshlar**

---

<sup>4</sup> Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. - 457 бет; Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. -Т.:Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда; Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида. (*Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2022 й., 6-сон*).[www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>5</sup> Мангейм К. Идеология и утопия , М.: «Терра», 1997.

<sup>6</sup> Aronson E. The Social animal. Seventh edition. W.H.Freeman and Co. New York, 1995., Brown R. The Social Psychology. The Second Edition. –New York., Descamps M. a le language de corps el la communacation corporelle. – Paris, PVF-1993., Feagin Joe R. Racial and ethic relations. 2-ed. 1989., Horowitz O. Ethic Groups in conflict. University of California Press. Berkley, Los Angeles, London. 1986., Lasswell H. Political Socialization as a policy science. // Handbook of political socialization. –New York., 1989

orasidagi destruktiv g'oyalarning mazmuni, xususiyatlari<sup>7</sup> asoslab beriladi.

Jamiyat ma'naviy taraqqiyot tamoyillarining asosi bo'lgan ma'naviyat sohasi bilan bog'liq tushunchalar va atamalarni o'rganishga qaratilgan asarlar orasida O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati tomonidan tayyorlangan va 2022 - yilda chop etilgan "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati" zaruriy manbadir<sup>8</sup>.

Ushbu yo'nalishda ba'zi olimlarning ilmiy izlanishlarida ham biz tanlagan mavzuga aloqador ba'zi jihatlar tadqiq etilgan. Bu borada xususan, falsafa fanlari doktori, professor M.Yuldashevning "Mustaqil O'zbekistan Respublikasida yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularning siyosiy madaniyati shakllanishi muammolari", siyosiy fanlar doktori, professor A.Mo'minovning "Mustaqil O'zbekistonning ma'naviy - madaniy sohadagi siyosati va uni amalga oshirish yo'llari", siyosiy fanlar doktori H.Axmedovning "O'zbekistonda jamiyat ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar dinamikasi (ijtimoiy - siyosiy tahlil)", sotsiologiya fanlari doktori T.Matiboyevning "O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotining demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy hamkorlik tizimini rivojlantirish omillari", falsafa fanlari doktori S.Norqulovning "Mustaqillik davrida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va ijtimoiy ongdagi o'zgarishlar", falsafa doktori A.Tashanovning "Buzg'unchi g'oyalarning milliy o'zlikni anglashga salbiy ta'siri" kabi dissertatsiyalarini alohida ta'kidlash lozim.

Mavzuning ijtimoiy – falsafiy tahlili nuqtai nazaridan talqinida X.Shayxovanning "Ma'naviyat manzillari", I.Ergashev, X.Xudoyberdiyev va A.Qahramonovlarning "O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li va mafkuraviy jarayonlar", N.Jo'rayevning "Yangilanishlar konsepsiyasi: yaratilishi, evolyutsiyasi va amaliyoti", A.Mo'minovning "Milliy siyosat va madaniy sohadagi islohotlar", "O'zbekiston: axborotlashgan jamiyat sari", A.O'tamurodovning "Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyutsiyasi", T.Alimardonovning "Siyosat va axloq", V.Qo'chqorovning "Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar" kabi monografiyalari va kitoblari muhimdir.

Xalqimizning ma'naviy yuksalishi va jamiyat rivoji, uning taraqqiyot tamoyillari takomilida muqaddas islom dini allomalari va jadid bobolarimizning ham o'ziga xos ta'siri borligi shubhasiz, albatta. Bugungi kunda ana shunday mutafakkirlarning g'oya va qarashlarini chuqur o'rganish va ularning asarlaridagi fikr va qarashlarini keng targ'ib etish imkonini beruvchi izlanishlar va tadqiqotlarga ehtiyoj ortib borayotgani bejiz emas.

---

<sup>7</sup> Бабочкин П.И., Плотников А.Д. Положение молодой семье в Российской Федерации, 2001 год (По итогам социологического исследования "Положение молодой семье в Российской Федерации в 2001 году"). – М.: 2002;

Быков С.А. Наркомания среди молодежи как показатель дезадаптированности//Социс., 2000 год. №4; Журавлева Л.А.Факторы и условия наркотизация молодежи// Социс., 2000 год. №6; Иванов О.И., Васильев И.Г. Динамика социальной напряженности в отношениях молодежи и общества (основные положения концепции исследования)//Регион: Политика.Экономика.Социология. 2000.№1- 2; Иконникова С.Н. Молодежь как социальная категория –М., 1970; Ковалева А.И., Луков Б.А.Социология молодежи:теоритические вопросы.-М.: Социум, 1999; Нехаев В.В. Государственная служба по делам молодежи:возникновение, структура, направлеия деятельности (Историко-правовой аспект). – Тула, 2000; Чупров В.И., Зубов Ю.А. Молодежь в общественном воспроизводстве, проблемы и перспективы.-М., 2000.

<sup>8</sup>Маънавият асосий тушунчалар луғати. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2022. – 816 б.

Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy ishlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek xalqining ma‘naviyati, madaniy merosi, qadriyatlarini o‘rganish va ularning hayotbaxsh tomonlarini yangi jamiyatimiz rivoji hamda barkamol avlodni tarbiyalash borasida qo‘llanilishi bo‘yicha talaygina asarlar yozilgan, ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Shu bilan birga, yangi O‘zbekistonga xos ma‘naviy taraqqiyot tamoyillarining yoshlarga ta‘siri, mazkur ijtimoiy omilning ahamiyatini oshirish bilan bog‘liq masalalarni yechish yo‘llari va usullariga bag‘ishlangan muammolar haligacha maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa o‘z navbatida, tadqiqotimiz mavzusining dolzarbligi va uni amalga oshirish zaruriyati mavjudligidan dalolat beradi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy talim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining ilmiy tadqiqotlar rejasiga muvofiq A 1-071-sonli “Murakkab va tahlikali zamonning ma‘naviy tahdidlariga qarshi mafkuraviy kurash vositalari kompleksini ishlab chiqish va joriy qilish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yangilanayotgan O‘zbekiston ma‘naviy taraqqiyot tamoyillarining barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini ochib berish, unga ta‘sir ko‘rsatgan omillarni har tomonlama o‘rganish asosida muayyan xulosalar va amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

“ma‘naviyat sohasi”, “ma‘naviy hayot” va “ma‘naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchalarining ma‘no - mazmunini qiyosiy tahlil qilish;

jamiyatning ma‘naviy hayotiga xos rivojlanish dialektikasi va barkamol avlodni tarbiyalashning ijtimoiy - falsafiy mezonlari bilan bog‘liq omillari hamda o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish;

O‘zbekistonda yangilangan ma‘naviy makonni shakllantirish jarayoni va uning barkamol avlodni tarbiyalash tamoyillariga ta‘siri bilan bog‘liq masalalarni tahlil qilish;

keyingi yillarda jamiyatimizni ma‘rifiy jihatdan yanada taraqqiy ettirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni samarali tashkil etish masalalarini tahlil etish;

yurtimizga xos tinchlik, birdamlik, ezgulikka intilish, millatlararo va konfessiyalararo bag‘rikenglik tamoyillarining barkamol avlod tarbiyasiga ta‘siri masalalarini o‘rganish;

aholini sog‘lomlashtirish va bu jarayonda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga alohida e‘tibor qaratish;

zamonaviy ilm - fan, ta‘lim - tarbiya va innovatsion g‘oyalarning ma‘naviy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash jarayoniga ko‘rsatayotgan ta‘siri masalalarini ochib berish.

**Tadqiqotning ob‘yekti** sifatida yangilanayotgan O‘zbekistonning ma‘naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omili ekanligi va uning ma‘naviy – ma‘rifiy asoslari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** yangilanayotgan O‘zbekistonning ma‘naviy taraqqiyot tamoyillari barkamol avlodni tarbiyalash omili va uning ma‘naviy

ma'rifiy asoslarini ilmiy nuqtai nazardan ochib berish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyoslash va umumlashtirish, taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Yangilanayotgan O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omilida “ma'naviyat sohasi”, “ma'naviy hayot” va “ma'naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo'lishidagi o'zgaruvchanlik, intensivlik va innovatsion xususiyatlari asoslangan;

jamiyatning ma'naviy hayotiga xos rivojlanish dialektikasi va barkamol avlodni tarbiyalashning ma'naviy taraqqiyot tamoyillari ijtimoiy - falsafiy mezonlari bilan bog'liq omillari hamda bu soha bilan bog'liq o'zgarishlar jarayonining umumiy qonuniyatlari hamda uning mamlakatimizga xos jihatlari ochib berilgan;

yangilangan ma'naviy makonni shakllantirish jarayoni va uning barkamol avlodni tarbiyalash tamoyillariga ta'siri bilan bog'liq muhim konstruktiv tendensiyalari hamda ularning natijalariga sabab bo'layotgan omillar va tamoyillari ma'naviy-siyosiy tahdid sifatida umuminsoniy qadriyatlariga rahna solish, dinlararo nizo va adovatlarni kuchaytirish kabi destruktiv, insonlar ruhiyatiga, ma'naviy qiyofasiga, maxfiy, aldov, majburlash orqali ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi manipulativ, diniy dunyoqarashi sayoz bo'lgan shaxslarga oxiratning yaqinligi haqidagi tasavvurlarni uyg'otuvchi esxatologik faoliyati orqali aholi o'rtasida separatistik kayfiyatni vujudga kelishiga sabab bo'layotganligi isbotlangan;

yurtimizga xos tinchlik, birdamlik, ezgulikka intilish, millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglik tamoyillarining barkamol avlod tarbiyasiga ta'siri masalalari kommunikatsion va innovatsion texnologiyalari (liberal, demokratik, konstruktiv, kommunikativ) orqali davlat suverenitetiga, konstitutsion tuzumga qilinayotgan tajavuzlarni oldini olish va bartaraf etishda milliy manfaatlarga asoslangan differensial (farqlash, darajalash, tabaqalashtirish) yondashuv zarurati asoslangan;

aholini sog'lomlashtirish va bu jarayonda barkamol avlodni tarbiyalash masalalarining milliylik, umuminsoniylik, an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligida, ma'naviy tarbiya muammolar kompleks nazoratlashtirilganligida kechayotgani dalillashtirilgan;

Yangi O'zbekiston sharoitida fuqarolar o'rtasida o'zaro do'stlik va hamjihatlikka asoslangan muhitni saqlash, mustahkamlash, qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni hurmat qilinishi hamda to'liq ta'minlanishi nazariy modellashtirilganligi va zamonaviy ilm - fan, ta'lim - tarbiya va innovatsion g'oyalarning ma'naviy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash jarayoniga ko'rsatayotgan ta'siri va umuminsoniy qadriyatlar mezonlariga asoslanganligi ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

jamiyatning ma'naviy hayotiga xos rivojlanish dialektikasi va barkamol avlodni tarbiyalashning ijtimoiy - falsafiy mezonlari bilan bog'liq omillarning mazmun-mohiyati tizimlashtirilib, bu sohadagi muammolarni bartaraf etish yo'llari

va usullari ko'rsatilgan, barkamol avlodni tarbiyalashda ulardan samarali foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan; ilmiy nazariy yondashuvlar asosida barkamol avlodni tarbiyalashda yangilanayotgan O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot tamoyillaridan samarali foydalanish bo'yicha ma'naviy - ma'rifiy chora - tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy - ma'rifiy tadqiqotlar instituti, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi hamda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qashqadaryo viloyati bo'limi faoliyati bilan bog'liq tarbiyaviy tadbir ishlanmalarini yaratishga doir xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar, xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya va u haqdagi retsenziyalar, izlanishlar natijasida shakllangan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani hamda ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jamiyat ma'naviy taraqqiyot tamoyillarini ta'minlaydigan omillar hamda amaliy faoliyat mexanizmini samarali tashkil qilish masalalari bilan to'ldirishida namoyon bo'ladi. Ilmiy ma'lumotlar, nazariy tahlil va umumlashmalardan, tavsiyalardan ta'lim - tarbiya tizimida "Falsafa", "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Ma'naviyatshunoslik", "Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" kabi fanlardan ma'ruzalar o'qish, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, o'quv qo'llanmalar, dasturlar, amaliy rejalar tayyorlashda ijodiy foydalanish imkoni mavjud. Dissertatsiya matni va unda bayon etilgan fikr - mulohazalar, takliflar va xulosalar jamiyat taraqqiyotining ma'naviy sohasi va u bilan bog'liq mavzular bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun ham muayyan manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda o'z aksini topgan fikr - mulohazalar va tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan xulosalar va tavsiyalardan jamiyatning ma'naviy taraqqiyot tamoyillarini yanada mukammallashtirish bilan bog'liq mavzuning turli jihatlarini, mamlakatimizda bu boradagi yutuqlar va natijalarni keng targ'ib va tashviq qilish, uning ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan faoliyatni samarali tashkil etishda davlat tashkilotlari va turli nodavlat muassasalar, fuqarolik institutlari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va uning joylardagi bo'limlari, ma'naviy - ma'rifiy tarbiya bo'yicha xizmatchilar va mutaxassislar, professor - o'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilar ham ijodiy foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqotning natijalari, undagi ilmiy

xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilayotgani bo'yicha quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgan:

Yangilanayotgan O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omilida “ma'naviyat sohasi”, “ma'naviy hayot” va “ma'naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo'lishidagi o'zgaruvchanlik, intensivlik va innovatsion xususiyatlari oid ilmiy xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining “Ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashning samarali usullari va vositalari” mavzuidagi turkum tadbirlarni tashkil etishga doir faoliyatida ijodiy foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023 yil 18 martdagi 4-13-21-703 - sonli ma'lumotnomasi). Bu esa ushbu tashkilotning mamlakatimizdagi siyosiy institutlarning yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ularda kuchli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'rnini yuksaltirish kabi vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qilgan;

jamiyatning ma'naviy hayotiga xos rivojlanish dialektikasi va barkamol avlodni tarbiyalashning ma'naviy taraqqiyot tamoyillari ijtimoiy - falsafiy mezonlari bilan bog'liq omillari hamda bu soha bilan bog'liq o'zgarishlar jarayonining umumiy qonuniyatlari hamda uning mamlakatimizga xos jihatlariga doir ilmiy xulosa va taklif-tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'rifiy tadqiqotlar institutida 2021–2022 - yillarda o'tkazilgan “Targ'ibot dasturi”ga oid faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'rifiy tadqiqotlar institutining 2023 - yil 10 - martdagi 84 - sonli dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot tamoyillari”da belgilangan ma'naviy - ma'rifiy vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan;

yangilangan ma'naviy makonni shakllantirish jarayoni va uning barkamol avlodni tarbiyalash tamoyillariga ta'siri bilan bog'liq muhim konstruktiv tendensiyalari hamda ularning natijalariga sabab bo'layotgan omillar va tamoyillari ma'naviy-siyosiy tahdid sifatida umuminsoniy qadriyatlariga rahna solish, dinlararo nizo va adovatlarni kuchaytirish kabi destruktiv, insonlar ruhiyatiga, ma'naviy qiyofasiga, maxfiy, aldov, majburlash orqali ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi manipulativ, diniy dunyoqarashi sayoz bo'lgan shaxslarga oxiratning yaqinligi haqidagi tasavvurlarni uyg'otuvchi esxatologik faoliyati orqali aholi o'rtasida separatistik kayfiyatni vujudga kelishiga sabab bo'layotganligiga oid xulosa va takliflardan O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2020–2024 - yillarga mo'ljallangan Saylov oldi dasturida keltirilgan “Zamonaviy rivojlangan davlat qurish va ma'naviy barkamol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish barobarida milliy o'zligimizni, or - nomus va g'ururimizni, insoniy qadr – qimmatimizni, ona tilimizni, dinimizni, urf - odat, an'ana va qadriyatlarimizni, saqlab qolish va boyitish” kabi vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston “Milliy

tiklanish” demokratik partiyasi tomonidan 2022 - yil 26 - dekabrda taqdim etilgan № 02/05-265 - sonli dalolatnoma). Natijada, partiya tizimidagi xodimlarning ma’naviy - ma’rifiy yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish, o‘quv - uslubiy hamda mafkuraviy targ‘ibot ishlari samarasini yanada oshirishga xizmat qilgan;

yurtimizga xos tinchlik, birdamlik, ezgulikka intilish, millatlararo va konfessiyalararo bag‘rikenglik tamoyillarining barkamol avlod tarbiyasiga ta’siri masalalari kommunikatsion va innovatsion texnologiyalari (liberal, demokratik, konstruktiv, kommunikativ) orqali davlat suverenitetiga, konstitutsion tuzumga qilinayotgan tajavuzlarni oldini olish va bartaraf etishda milliy manfaatlariga asoslangan differensial (farqlash, darajalash, tabaqalashtirish) yondashuv bo‘yicha berilgan taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston “Adolat sotsial - demokratik partiyasidagi ishlab chiqilgan rejalarda, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa ma’naviy - ma’rifiy tadbirlar uchun ma’ruzalarda, yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan asrashga qaratilgan tadbirlarda foydalanilgan (O‘zbekiston “Adolat sotsial - demokratik partiyasining 2023 - yil 14 - martda berilgan № 01-04/64 - sonli dalolatnomasi). Bu partiya tomonidan tashkil etilgan seminarlar, davra suhbatlari va boshqa ma’naviy - ma’rifiy hamda yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan asrashga qaratilgan tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazilishiga xizmat qilgan;

aholini sog‘lomlashtirish va bu jarayonda barkamol avlodni tarbiyalash masalalarining milliylik, umuminsoniylik, an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unligida, ma’naviy tarbiya muammolar kompleks nazoratlashtirilganligida kechayotganiga doir amaliy takliflar va tavsiyalaridan “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”ning “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” g‘oyasini amalga oshirish jarayonida zamonaviy tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash dasturi”ni amalga oshirishda keng foydalanilgan (“O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”ning 2022 - yil 27 - dekabdagi № 18 - sonli dalolatnomasi). Bunda ushbu jamiyatning yuqoridagi mavzudagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda o‘z samarasini ko‘rsatgan va bugungi O‘zbekiston jamiyatining ma’naviy taraqqiyot tamoyillariga doir islohotlar va yangilanishlarning mamlakatimiz taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatiga doir ma’lumotlar bazasini boyitishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolar o‘rtasida o‘zaro do‘stlik va hamjihatlikka asoslangan muhitni saqlash, musahkamlash, qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni hurmat qilinishi hamda to‘liq ta‘minlanishi nazariy modellashtirilganligi va zamonaviy ilm - fan, ta‘lim - tarbiya va innovatsion g‘oyalarning ma’naviy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash jarayoniga ko‘rsatayotgan ta’siri va umuminsoniy qadriyatlar mezonlariga asoslanganligiga oid ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2023 - yilda ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 4 - bandi “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat”, 18 - bandi “Bir ziyoli – bir mahallaga ma’naviy homiy” kabi yo‘nalishlarni amalga oshirishda hamda konferensiya, seminar, davra suhbatlari, shuningdek, boshqa ma’naviy – ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi

Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tomonidan 2023 - yil 24 - martda berilgan № 14-07- 309 - sonli ma'lumotnoma). Bunda u yoshlarga ma'naviy ozuqa berib kelayotgan faol ziyolilar faoliyatini namunaviy darajaga ko'tarish, ularni aholining keng qatlamlarida, mahallalarda targ'ib qilishda, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish, hududlarda ma'naviy - ma'rifiy ishlarni mahallabay tarzda tashkil etishga yordam bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 28 dan ortiq Respublika va xorijiy jurnallarda hamda ilmiy - amaliy konferensiyalarda, jumladan, 9 ta xalqaro va 19 ta respublika ilmiy - amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, 1 ta elektron darslik, 2 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 28 ta maqola, jumladan, 19 tasi respublika, 9 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, 13 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 228 betni tashkil qiladi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Tadqiqot matnining **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning obekti, predmeti, maqsadi va vazifalari aniqlangan, nazariy va uslubiy asoslari sinovdan o'tganligi, tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Ma'naviy taraqqiyot tamoyillari va barkamol avlodni tarbiyalash dialektikasini ilmiy-falsafiy o'rganish masalalari”** deb nomlangan birinchi bobining **“Ma'naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchasining ijtimoiy - falsafiy tahlili**” nomli birinchi paragrafida **“Ma'naviyat sohasi”**, **“Ma'naviy hayot”**, **“Ma'naviy taraqqiyot tamoyillari ”** kabi tushunchalarning mohiyati va ularning asosiy xususiyatlariga oid nazariy-falsafiy konsepsiyalar va ular orasidagi dialektik aloqadorlik masalalari tadqiq etilgan.

Alohida ta'kidlash joizki, tez o'zgarib va globallashib borayotgan bugungi dunyoda turli-tuman ma'naviy xurujlar va tahdidlar paydo bo'lishi davom etmoqda. Ushbu jarayonda jamiyatimizga xos ma'naviy taraqqiyot tamoyillari mezonlariga nisbatan munosabat ham o'zgarib bormoqda. Ayni paytda ushbu serqirra va murakkab jarayonning ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar falsafasi bilan bog'liq jihatlarni o'rganishni kun tartibiga qo'yimoqda.

**“Ma'naviy taraqqiyot tamoyillari”** tushunchasi zamonaviy falsafa nuqtai nazaridan yetarlicha talqin qilinmagan. U bilan bog'liq ko'plab muhim muammolarga haligacha tadqiqotchilar o'z e'tiborini qaratmagan. Shu bilan birga, bugungi kunda mazkur kategoriyaga nisbatan turlicha ilmiy yondashuvlar bor, uni xilma-xil talqin qilish hollari ham uchraydi.

“Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchasining ijtimoiy - falsafiy mazmunini ham insoniyatning ko‘p asrlik taraqqiyoti belgilab bergani shubhasiz. Jamiyatning ma’naviy hayoti o‘z navbatida, ularning har biri uchun umumiy tayanch tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi va ushbu sohalaridagi jarayonlarning mazmun - mohiyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu tushunchada barcha ma’naviy qadriyatlar, burch va mas’uliyat, insof, adolat, mehr - oqibat, vijdon, halollik va poklik, mardlik va matonat haqidagi qarashlar, shu asosda shakllangan insoniy fazilatlar hamda ijtimoiy jihatlar o‘z aksini topadi. Bu nuqtai nazardan, “Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchasi “ma’naviyat” tushunchasi bilan o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘ladi.

Jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti muayyan davrda yashaydigan kishilar ma’naviy va axloqiy faoliyati natijalarini o‘zida ifodalaydi, bu yo‘nalishdagi xilma - xil hodisalar, xatti - harakatlar bilan tavsiflanadigan ijtimoiy hodisa tarzida namoyon bo‘ladi. Bunday tushunishda, jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti davlatning ijtimoiy - siyosiy faoliyatining muhim asosi sifatida, shaxs va jamoa ehtiyojiga aloqador iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning mohiyatini namoyon qiladi.

Bularning barchasi “Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchasining mohiyati va uning xususiyatlarida aks etadigan muhim va nomuhim tuzilmaviy tarkibiy qismini, balki uning funksional va ijtimoiy - siyosiy o‘ziga xosliklarini o‘rganish imkonini yaratadi. Bu jihatdan uning ijtimoiy xususiyatlarining namoyon bo‘lish shakllarini belgilovchi siyosiy, madaniy va mafkuraviy - g‘oyaviy omillar ta’sirini o‘rganish muhim.

Xalq hayotining ma’naviyat sohasidagi tayanch tushunchalaridan biri bo‘lgan “Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchasini ta’riflash va tavsiflashda unda ifodalangan hodisalarning maqominigina emas, balki har bir jihatning xususiyatini belgilovchi o‘ziga xos genezisi va dinamikasini ham hisobga olish zarur. Jamiyatning ma’naviy taraqqiyot tamoyillariga mansub bo‘lgan unsurlarini alohida ta’kidlash, uning mazmun - mohiyatini anglash muhim ahamiyatga ega.

Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari murakkab subyektiv - obyektiv xususiyatga ega ekanligini, har bir inson, davlat va xalq taraqqiyotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, madaniy, ma’rifiy, axborot va boshqa sohalariga ta’sir o‘tkazishini nazarda tutish lozim. Bugungi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda jamiyat ma’naviy taraqqiyot tamoyillarining boshqa sohalar bilan uzviy bog‘liqligi va o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘lish tamoyillariga alohida e’tibor berish lozimligini anglatadi.

“Ma’naviyat sohasi”, “Ma’naviy hayot” va “Ma’naviy taraqqiyot tamoyillari” tushunchalari bilan bog‘liq masalalar majmuini ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar falsafasining muhim ilmiy yo‘nalishi sifatidagi ahamiyatini belgilab bermoqda, ikkinchidan, muttasil o‘zgarib borayotgan ijtimoiy - siyosiy omillar ta’sirida jamiyat a’zolarining ma’naviy dunyosini yanada yuksaltirish vazifalarini dolzarblashtirmoqda.

Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishdagi voqea - hodisalarga bafarq bo‘lmaslik, jamiyat ma’naviy taraqqiyot tamoyillaridagi ijobiy jihatlar ustuvorligini ta’minlash omillarini yanada mustahkamlashni taqozo qilmoqda. Ayni paytda, ba’zi

buzg‘unchilik bilan bog‘liq ta’sirlardan doimo ogoh bo‘lish va ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan, mustahkam nazariy - metodologik qarashlarga tayanadigan tadqiqotlar va izlanishlar olib borishning ahamiyati ortayotganidan dalolat beradi.

Ushbu bobning **“Ma’naviy taraqqiyot dialektikasi va barkamol avlod tarbiyalashning ijtimoiy - falsafiy mezonlari”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida jamiyatning ma’naviy hayotiga xos rivojlanish dialektikasi va yosh avlodni tarbiyalashning ijtimoiy - falsafiy mezonlari bilan bog‘liq omillari hamda o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Falsafa qonunlariga ko‘ra, ma’naviy hayot tamoyillarida muayyan davr va jamiyatga xos belgilar, davlat siyosati bilan bog‘liq xilma – xil xususiyatlar va inson kamoloti bilan bog‘liq turlicha namoyon bo‘ladigan ijtimoiy - falsafiy, madaniy - ma’rifiy jihatlar, aholi, ayniqsa yoshlarning ruhiyati va kayfiyatining dialektik aloqadorligi ham muhim o‘rin egallaydi.

Bugungi kunda yurtimizda yashayotgan har qanday kishi, ayniqsa yoshlar umumiy qonun - qoidalar, tartiblar va talablar bilan birga, o‘zi yashayotgan jamiyatning ma’naviy taraqqiyot mezonlarini anglash va o‘z faoliyatini uning umumiy mezonlariga uyg‘unlashtirishda ushbu jihatlarga e’tibor qaratadi va ular bilan bog‘liq talablarga rioya qiladi. Bunday belgilar va o‘ziga xos jihatlar barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga doir tushunchalarning turli xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadigan ma’naviy tamoyillar uchun umumiy mezon va dialektik aloqadorlikni ta’minlaydigan tayanch omillar bo‘lib hisoblanadi.

Bularning barchasi jamiyatning ma’naviy hayoti va barkamol avlod tarbiyalashining o‘ziga xos jihatlari va ijtimoiy taraqqiyotning boshqa yo‘nalishlari hamda sohalar bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda uzviy aloqadorligini anglatadi. Ushbu yo‘nalishda ko‘plab mutaxassislar va tadqiqotchilar duch keladigan masalaning muhimligi jamiyatning ma’naviy hayoti barkamol avlod shakllanishining omili sifatida faqatgina inson ongining o‘ziga xosliklariga bog‘liqmi yoki moddiy makon bilan aloqadormi? degan savolga borib taqaladi. Aslida, har qanday holda ham, moddiylik va ma’naviylikning o‘zaro aloqadorligi, uyg‘unligi va dialektik bog‘liqligi o‘ziga hos tarzda namoyon bo‘ladi.

Har qanday jamiyat hayoti va faoliyatida moddiy, ma’naviy, falsafiy, ijtimoiy sohalar muhim o‘rin egallaydi. Ayni paytda, jamiyat hayotida moddiy va ma’naviy sohalarining bir butunlikda ekanini unutmazlik zarur. Ushbu zaruriyat mazkur sohalarining muqarrar ravishda falsafiy omillar bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo‘lishini, jamiyatning falsafiy va ma’naviy tomonlarini bir - biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo‘yish mantiqqa zid ekanini anglatadi. Bu mavzuning O‘zbekiston taraqqiyoti bilan bog‘liq masalalari Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlarida, nutq va ma’ruzalarida bugungi jamiyat rivojining ustuvor vazifalari sifatida asoslab berilmoqda. Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida “Bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir”, deb ta’kidlagani aslo bejiz emas<sup>9</sup>.

---

<sup>9</sup>Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашимиз.-Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy falsafa uchun hamma zamonlarda ham jamiyatning umumiy rivojiga, davrning aniq voqea - hodisalariga, aholi qatlamlari, ijtimoiy guruhlar, ayniqsa yoshlarning qanday munosabatda bo'layotgani muhim. Shu asosda jamiyat taraqqiyoti, uning ma'naviy makoni o'rganiladi va tahlil etiladi. Bu jihatdan, jamiyat ma'naviy taraqqiyoti tamoyillarining barkamol yoshlarni tarbiyalash omili sifatidagi ta'siri masalasi ham muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

Masalaga ma'naviy jihatni bo'rttirishga asoslangan yondashuvga ko'ra fikr yuritilsa ma'naviylik tamoyili asosidagi qarashlar jamiyat ma'naviy hayotning mavjudligi inson ongining turli shakllariga bo'ysunganligini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Albatta bunda ham ijtimoiy - ma'naviy hayot alohida insoniy mazmunga ega va u bir vaqtning o'zida insonning o'zi tomonidan yaratilgan infratuzilma sifatida yosh avlodga dialektik ta'sir ko'rsatadi, deya fikr yuritishga sabab bo'ladi.

Bunda ham ushbu sohadagi dialektik jarayonda butun xalqning turmushi va madaniyati aks etadi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muayyan tarixiy davriga xos jihatlari o'z ifodasini topadi. Ushbu xususiyatlarga ega bo'lgan va insoniy dunyoda muttasil jamlanib boradigan ma'naviy sohaning ijtimoiy - falsafiy modelida barkamol yoshlarni tarbiyalash jarayonining barcha jihatlari va mezonlari o'zaro bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Aynan ana shu bog'liqlik yoshlarni ijtimoiylashtirishga, ularni tarbiyalashga, davlatning ma'rifatga, ta'limga qaratilgan faoliyatini belgilaydi hamda bugungi jamiyatimizning zamonaviy turmush tarzi va yangi ma'naviy qiyofasini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Birinchi bobning **“Mustaqil rivojlanish jarayonida ma'naviy hayot va barkamol avlodni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari”** nomli uchunchi paragrafida mamlakatimiz istiqlolining dastlabki o'n yilliklaridagi ma'naviy hayot va yoshlar tarbiyasi jarayoni, bu haqdagi ilmiy manbalar tadriji tahlil qilingan.

Ma'lumki, jamiyatning ajralmas qismi hisoblangan yoshlar o'zlaridan avvalgi ajdodlar qoldirgan ma'rifat, madaniyat, ma'naviyatni, an'ana, urf-odatlarini boyitib boradi, yangi-yangi tashbuslar, islohotlar bilan ijtimoiy hayot tarixidan muayyan o'rinlar oladi. Shuning uchun jamiyat yoshlarining bilim olishlari, ma'lum bir kasbi - korni egallashlari, o'z dunyoqarashlarini shakllantirishlari, jismoniy yetukligini, ma'naviy jihatdan boyligini rivojlantira borib o'zining kelajagiga asos soladi. Shu sababdan ham, istiqlolning dastlabki o'n yilligidayoq, ma'naviyatga katta e'tibor qaratildi, respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar natijasida bu jabhaga tegishli bir qator asar, to'plam, monografiyalar yaratildi. Ularning mualliflari ma'naviyatning mazmuni, mohiyatini ochib berishga harakat qilganlar. Bu o'rinda, avvalo shuni aytish kerakki, mamlakatimizda ma'naviyatning mohiyatini ochib beradigan nazariy asar sifatida Birinchi Prezidentimiz asarlari, ayniqsa “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kitobidan o'rin olgan masalalarni alohida qayd qilish lozim. Ularda ma'naviyatimizning ildizlari qanchalik qadimiy o'tmishimizga borib tutashib ketishi, ma'naviyatni boyitishda islom, Markaziy Osiyoda yashab faoliyat ko'rsatgan buyuk mutafakkir va ma'rifatparvarlar meroslari, islom ta'limoti alohida o'rin olganligi ta'kidlangan. “Birinchi navbatda, – degan edi marhum davlatimiz rahbari, – milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish

lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne - ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitish, so'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e'tiqodining erkinligini ta'minlashimiz kerak"<sup>10</sup>.

Istiqlolning dastlabki o'n yilliklarida mavzuimiz haqida olimlar bergan talqinlar ustida gap yuritilar ekan, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati tomonidan tayyorlangan va birinchi varianti 2009 yilda chop etilgan "Ma'naviyat asosiy tushunchalarning izohli lug'ati"ni alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga M.Imomnazarovning "Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari" nomli monografiyasi, Z.G'ofurov, B.Siddiqovlarning "Ma'naviy yuksalish – taraqqiyot omili" nomli qo'llanmasi, Azamat Ziyoning "Ma'naviy mustaqillik" nomli risolasi, E.Yusupov va F.Ismoilovlarning "Inson barkamolligi" (Toshkent, O'zbekiston, 1992) kabi asarlarini ham misol keltirish mumkin.

Tahlillar shundan dalolat beradiki, mustaqillik iqtisodiy, ijtimoiy masalalarda jiddiy islohotlar o'tkazish bilan birga ma'naviy, madaniy, ma'rifiy, huquqiy sohalarida ham tub o'zgarishlar amalga oshirilishida katta rol o'ynadi. Ma'naviyat va barkamol avlodni tarbiyalash sohasida istiqolning birinchi o'n yilligida nashr etilgan ilmiy - ommabop adabiyotlar haqida to'xtalib o'tish va ularda ma'naviyatning ma'nosini, mazmunini ochib berishga qanchalik e'tibor berilganini o'rganish yoshlarni tarbiyalashda, shuningdek, falsafa, siyosatshunoslik, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlar uchun ham katta ahamiyatga egadir.

Dissertatsiya birinchi bobining to'rtinchi paragrafi **"Yangi O'zbekiston zamonaviy yoshlarining ma'naviy qiyofasi va uni takomillashtirishning tamoyillari"** deb nomlangan. Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasiga ko'ra, har qanday tub yangilanish, inqilobiy o'zgarish ilm - ma'rifatsiz, ma'naviyat, madaniyatsiz sodir bo'lishi mumkin emas. Buni barcha Renessans davrlarining voqea - hodisotlari tasdiqlaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda mazkur masalaga e'tibor kuchaydi. Bu jihatdan, Taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo'nalishi, ya'ni ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish sohasidagi ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlar alohida ahamiyatga molikdir<sup>11</sup>.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy - ma'naviy va ilmiy - ma'rifiy sohalarini yanada takomillashtirish, jamiyatdagi ma'naviy barqarorlik va hamjihatlik, qonun ustuvorligi va xavfsizlik kafolatlarini mustahkamlash, Uchinchi Renessansni barpo etuvchilarning yuksak ma'rifatli avlodini tarbiyalash, barkamol shaxsni tarbiyalash mamlakatimizda ma'rifatli jamiyat barpo etish mazkur yo'nalishdagi faoliyatning asosiy mazmunini belgilaydi. Bu jihatdan, A.Mavrulov ta'kidlaganidek: "Boy o'zbek madaniyati bugun o'zining milliyligini saqlab qolgan holda, barkamol shaxsni tarbiyalash, barqaror ijtimoiy - madaniy muhitni barpo etish, jamiyatda sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish, odamlarda tafakkur o'zgarishlarini sodir etsagina o'zining asosiy vazifalarini bajargan bo'ladi. Ana

<sup>10</sup> Қаримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т.: «Ўзбекистон», 1994. 65 бет.

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2022 й, 6-сон).www.lex.uz

shundagina bugun yurtimizda keng jaranglayotgan “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” shiorini real harakatga keltira olamiz”<sup>12</sup>.

Ushbu yo‘nalishda yoshlarga alohida ahamiyat qaratilayotgani aslo bejiz emas, zero O‘zbekiston – yoshlar mamlakati. Yurtimiz aholisining 60 foizidan ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Ularning har tomonlama barkamol avlod bo‘lib yetishishlari uchun barcha shart - sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, kitobxonlikni targ‘ib qilish ham mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini qurish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ladi.

Ilg‘or yoshlarni tarbiyalash yo‘lida hukumatimiz tomonidan qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, yangi tashkil etilgan Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablarda minglab iqtidorlar tarbiyalanmoqda, ularda tahsil olayotgan o‘quvchilar mahalliy va xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishmoqdalar.

Yoshlarga doir olib borilayotgan siyosatda ularning ijtimoiy - siyosiy faolligini oshirish masalasiga ham ustuvor yondashilmoqda. So‘nggi yillarda yoshlarga doir davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan muhim qarorlar va qonunlar qabul qilindi, 70 dan ortiq huquqiy - meyoriy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritildi. O‘zbekiston yoshlarini birlashtiradigan tashkilot – Yoshlar Ittifoqi tashkil etilib, hozirda 8 millionga yaqin o‘g‘il - qizlar bir maqsad, bir tashabbus atrofida jamlandilar. Bugun butun xalqimiz yagona ezgu maqsad – Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida birlashmoqda va bu harakat safida serg‘ayrat yoshlarimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi ishongan kuchga aylanmoqda.

Ma‘naviy hayot tamoyillari yoshlar ta‘lim - tarbiyasida alohida ahamiyatga ega. Shu tufayli ta‘lim tizimi tubdan isloh qilinib, zamon talabi asosida yangilanmoqda. Yoshlarning bilim olishlarini yanada takomillashtirish, ularni mamlakatimizning barkamol insonlari qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart - sharoitlar yaratilmoqda. Respublikamiz yoshlari ma‘naviyatini yanada yuksaltirish, bu sohada o‘tmishimiz merosidan va qadriyatlarimizdan, jahon tajribasidan to‘la - to‘kis foydalanish zarur, albatta. Ayni shu zaruriyat ma‘naviyat sohasidagi tamoyillarning nazariy va amaliy maslalariga alohida e‘tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning **“Jamiyatning yangilanishi va ma‘naviy taraqqiyot dialektikasining tamoyillari”** deb nomlangan ikkinchi bobining **“Jamiyatimizning ma‘naviy yangilanishi jarayoni va bu sohadagi taraqqiyotining zamonaviy tamoyillari”** nomli birinchi paragrafida O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi, jamiyatimiz ma‘naviy qiyofasining yangilanish dialektikasi va ushbu jarayonning amalga oshirilayotgan islohotlar bilan o‘zaro aloqadorligi kabi masalalar tahlil qilingan.

Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ta‘kidlangani kabi: “... insoniyat dunyosining o‘ziga xos bir yoritqichi – “ma‘naviyat chirog‘i” bor. O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishgan

---

<sup>12</sup> Маврулов А. “Маданият ва Учинчи Ренессанс ёхуд бекиёс ирода кучи ва виждон амри билан...” - “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2021 йил 10 декабрь.

ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat chirog'i yonishi va u bizni ezgu amallarga undab, doimo mas'uliyat tuyg'usini o'yg'otib turishi zarur"<sup>13</sup>. Bu jihatdan, Vatanimiz tarixida tub burilish yasalayotgan hozirgi davrda har bir yurtdoshimiz yuragida ana shunday ma'naviyat chirog'i porlab turishiga erishish nihoyatda muhim. Ayni paytda bunday ezgu niyatlar barcha fuqarolar qalbida el - yurt va xalq taqdiri uchun mas'uliyat hissini mustahkamlashi uchun harakat qilish lozimligi davr talabiga aylandi.

Jamiyatning kelajagi yorqin va buyuk bo'lishi uchun yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish katta ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz. Buning uchun ma'naviyat sohasida taraqqiyot tamoyillariga asos bo'ladigan tayanch shart - sharoitlar bo'lishi, ularni yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ma'naviyatni yuksaltirish uchun tegishli moddiy - texnik baza yaratildi va bu jabhaga e'tibor kuchaydi.

Bu borada keyingi yillarda olg'a surilayotgan Yangi O'zbekiston g'oyasini ko'p millatli elimizning qalbiga singdirish, yoshlarni ushbu ezgu g'oya atrofida birlashtirib, ularda kelajakka ishoch ruhini, bunyodkorlik, tashabbuskorlik fazilatlarini kuchaytirish ma'naviy sohadagi faoliyatning bosh mezoniga aylanishi ushbu yo'nalishdagi yangilanish jarayonining asosiy mezonidir.

Shunday ekan, aholimizning hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot - tashviqot ishlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chorasini ko'rish kerak. Jahonda hukm surayotgan ijtimoiy - siyosiy jarayonlar hamda yuzaga kelgan tarixiy zarurat yoshlarimizning ma'naviy - ma'rifiy sohadagi buguni va ertasini belgilaydigan amaliy faoliyat dasturlarini yaratish va hayotga tatbiq etish uchun zaruriyatni vujudga keltirmoqda.

Ammo, barcha sohalarda bo'lganidek, ma'naviy - ma'rifiy ishlarda ham yechimini kutib turgan masalalar yo'q emas. Misol uchun, ulkan o'zgarishlar, yangi jamiyat va uning yaratuvchilarining yosh avlodi qiyofasining nazariy asosini belgilab beradigan milliy g'oyani tarbiyalash birinchi galdagi masala hisoblanadi. Chunki, jahon tarixidan ham ma'lumki, qaysiki xalq yoki millat bir maqsad, yagona g'oya atrofida birlashsa, o'sha davlat taraqqiyotga erishgan. Lekin oramizda hamon ma'naviyatning mohiyatini tushunmagan, milliy g'oya haqida mutlaqo tushunchasi yo'q insonlar ham bor. Ba'zilar esa milliy g'oya deganda, eski tuzumlardagi mafkuralarni ko'z oldiga keltiradi.

Bugungi kundagi ma'naviyat sohasidagi yangilanishlarning jamiyatimiz a'zolariga ko'rsatadigan ta'siri, o'zgarishlarni amalga oshirishdagi ahamiyati ortib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Shuning uchun ham ma'naviy - ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat va san'at muassasalari, ijodiy uyushmalar hamda ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirish yo'lida harakat qilinmoqda. Madaniyat va ma'naviyat sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar mehnatini munosib qadrlash choralari ko'rilyapti. Amalga oshiriladigan islohotlarda yuksak natijalarga erishish va sohaning maqsad - mohiyatini belgilaydigan tizimli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

---

<sup>13</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси.. – Т.:Ўзбекистон, 2021, Б.457.

Dissertatsiya ikkinchi bobining “**Yangi ma’naviy makon yaratilishi – taraqqiyot tamoyillari va yoshlar kamolotining muhim omili**” deb nomlangan ikkinchi paragrafida mamlakatimizda yangilangan ma’naviy makonni shakllantirish jarayoni va uning barkamol avlodni tarbiyalash tamoyillariga ta’siri bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan.

Bugungi kunda yurtimizda Uchinchi uyg‘onish davri poydevorini yaratish asnosida erkin, zamonaviy talablarga javob beradigan, yangi ma’naviy makonni bunyod etish islohotlarning eng ustuvor maqsadlaridan biriga aylangan. Ushbu yangi ma’naviy makon Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini namoyon etadigan, insonlar baxtli va totuv yashaydigan, ezgu g‘oyalarga yo‘g‘rilgan jamiyatdir.

“Globallashuv va turli mafkura xurujlari davrida bunday ezgu g‘oyalar, yuksak ijtimoiy tamoyillarga asoslangan yangi ma’naviy makonni yaratish imkoni bormi? Bu maqsad yo‘lida nimalar qilish kerak?” degan masalalar kun tartibiga chiqmoqda. Bu maqsad yo‘lida, o‘z - o‘zidan, yoshlarni ajdodlarimizdan qolgan ulkan ma’naviy – axloqiy meros, milliy qadriyatlarga oshno qilish, ularda ma’naviy yuksalish, bilim olish va komillikka intilishni rag‘batlantirish asosiy masalaga aylanadi.

Shunday ekan, yoshlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, ularni zararli illatlardan saqlash, avvalo, jamiyatimizda sog‘lom fikr hamda qudratli kuch ustuvor bo‘lishiga zamin yaratishini bir daqiqa ham unutmaslik kerak. Mamlakatimizda yangi ma’naviy makon yaratish maqsad qilingan ekan, xalqimizning ma’rifiy hayotidagi islohotlarni jadallashtirish, ma’naviy muhitni sog‘lomashtirish ishida sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik talab qilinadi.

Shuni hisobga olgan holda, jamiyat ma’naviyatiga, yoshlar tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan barcha davlat organlari, tashkilotlar va muassasalar, fuqarolik institutlari, mahalla, ulamolar, ijodkorlar, huquq - tartibot idoralari va boshqalar o‘z faoliyatini jadallashtirishi kerak. Ammo, shunisi achinarliki, o‘tkazilgan tahlillar amalga oshirilgan ba’zi ishlarning natijador emasligini va masalaga jiddiy qarash kerakligini ko‘rsatmoqda. **Jumladan,**

**birinchidan,** aholi orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik kabi umuminsoniy tamoyillarni singdirishning ma’naviy asoslarini yaratish borasidagi ishlarda kamchiliklar kuzatilmoqda;

**ikkinchidan,** aholi, ayniqsa yoshlar ongiga qilinayotgan g‘oyaviy tajovuzlar ta’sirida milliy qadriyatlarga nopisand qarash, turli zararli ruhdagi yo‘nalish yoki oqimlarga ergashish, ekstremistik kayfiyatdagi guruhlariga adashib qo‘shilib qolish holatlari uchramoqda;

**uchinchidan,** bunday begona va buzg‘unchi mafkuraviy xurujlarga, “ommaviy madaniyat” atalmish ma’naviy xatarga va boshqa tahdidlarga qarshi murosasizlikni shakllantirish borasida davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati talabga javob bermaydi;

**to‘rtinchidan,** yoshlarni turli ko‘rinishdagi tahdidlardan asrash, ularni yuksak ma’naviyat egasi qilib tarbiyalash mezonlarini ishlab chiqish borasida nazariy asoslar taqdim etilmayapti, ilmiy - tadqiqot ishlari yetarli emas;

**beshinchidan,** yoshlar ongi va qalbiga vatanga sodiqlik, daxldorlik hissini

singdirish, ularda har qanday g'oyaviy xurujga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasidagi ishlar ham yetarli emas;

**oltinchidan**, ayrim mas'ul tashkilotlar tomonidan hududlarda ma'naviy - ma'rifiy ishlar ilmiy asosda yo'lga qo'yilmagani, o'z faoliyatini yaratilayotgan imkoniyatlar darajasida yuritmasligi ham natijalarga ta'sirini o'tkazmoqda;

**yettinchidan**, sohaga aloqador ba'zi rahbarlarning ma'naviy - ma'rifiy ishlarni o'z holiga tashlab qo'yishi, mas'uliyatni yetarli darajada his qilmayotgani ham kutilgan natijani bermayapti.

Bularning barchasi bugungi kunda davrning o'zi boshqa sohalarda bo'lganidek ma'naviy - ma'rifiy ishlarni ham ilmiy asosda tahlil qilish, ma'naviy muhitni yaxshilashga qaratilgan chora - tadbirlarni kelajakni ko'zlagan holda amalga oshirishni taqozo etmoqda. Sohada shu asosda ish yuritilmas ekan, ma'naviy muhitda kutilgan natijalarga erishib bo'lmaydi.

Bu jihatdan, davlatimiz tomonidan yangi ma'naviy makonni yaratish yo'lida jadal ish olib borilmoqda. Jamiyatimiz rivoji yo'lida bir qator, jumladan, ta'lim - tarbiya, madaniyat, san'at sohaslarini rivojlantirish, ilm - fanga qiziqish va kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha tegishli qaror va farmonlar qabul qilindi.

Ma'naviy - ma'rifiy sohadagi davlat siyosatining asosiy muvofiqlashtiruvchisi bo'lgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatini tanqidiy jihatdan o'rganib, kelgusidagi asosiy faoliyat yo'nalishlari tubdan yangilanishi belgilab olindi. Markaz ishi zamonaviy talablar asosida takomillashtirilib, unda ma'naviyatchi mutaxassislar bilan bir qatorda sohaning ilmiy asoslarini yaratadigan, ma'naviy targ'ibot va tashviqotning ta'sirchan usullarini ishlab chiqish salohiyatiga ega bo'lgan, ilm - fanning so'nggi yangiliklaridan boxabar olimlarning faoliyat yuritishiga imkoniyatlar berildi.

Ayni paytda, bugungi globallasuv davrida yurtimiz yoshlarini chegarabilmas g'oyaviy tahdidlar, turli diniy oqimlar, ekstremistik guruhlar ta'siridan asrash hamda joylarda ijtimoiy - ma'naviy muhitni yaxshilash masalasiga e'tiborni kuchaytirish zarur. Ma'naviy - ma'rifiy ishlarning keng ommaga yetib borishi, butun xalqimiz, ayniqsa har bir yosh fuqaroda vatan taqdiri va islohotlar jarayoniga daxldorlik hissini uyg'otish masalasi nihoyatda jiddiylashmoqda.

Bugungi notinch zamonda barcha yoshlarimizda ichki va tashqi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni mustahkamlash, ma'naviy hayotni boyitish masalasi, davlat va jamoat tashkilotlarining bu yo'nalishdagi faoliyatini kuchaytirish vazifasi yanada dolzarb.

Ikkinchi bobning **“Yangi O'zbekistondagi ma'rifiy islohotlar va yosh avlod tarbiyasining asosiy yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi paragrafida ma'rifat sohasidagi islohotlar va ularning barkamol yoshlarni voyaga yetkazish jarayoniga ta'siri masalalari tahlil qilingan.

Bugungi, shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda, davlatlar taraqqiyoti va xalqlar totuvligiga tajovuzlar avj olgan pallada, yoshlarning axloqiy tarbiyasi va ma'naviy -ma'rifiy qiyofasini ezgu g'oyalar asosida tarbiyalash nihoyatda muhim.

Ma'lumki, bizda aholining beshdan bir qismi uzluksiz ta'lim tizimi bilan qamrab olingan. Ayni paytda, ta'lim tizimidan tashqaridagi katta ulushni tashkil

qiladigan aholi o'rtasida ma'naviy - ma'rifiy ishlar, ta'lim - tarbiya, tashviqot ishini samarali yo'lga qo'yish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sababi, inson ma'naviy - ma'rifiy omillar ta'sirida, ta'lim - tarbiya orqali kamolotga erishadi, insoniy fazilatlarini o'zlashtiradi va shu orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Har bir sohada bo'lganidek, ma'naviyat va ma'rifat sohasida ham "mayda, arziyas" muammoning o'zi yo'q. Chunki bugun ahamiyatsiz tuyilgan kichik xato ertaga ulkan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, mustaqillikning dastlabki o'n yilliklarida bozor munosabatlariga o'tishning sermashaqqat jarayoni ko'plab yoshlar, maktab o'qituvchilari va yuqori sinf o'quvchilari hayotida muayyan iqtisodiy qiyinchiliklarni tug'dirdi. Bunga chiday olmagan ba'zi o'qituvchilar va o'quvchilar o'qish va ishni tashlab, boshqa sohalarda (asosan savdo – sotiq, tadbirkorlikka) ishlashga o'tib ketdilar. Natijada ko'pgina o'qituvchilar o'rni bo'sh qoldi, ba'zi fanlar o'qitilmadi. Bu hol, bir tomondan, ba'zi yoshlarda bilim olishdan ko'ra pul topib, iqtisodiy ahvolni yaxshilash zarur ekan degan psixologiyani shakllantirdi; ikkinchi tomondan esa, bunday yoshlarda ta'lim tizimi bilan aloqasi uzilgandan so'ng ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan chora - tadbirlar yo'li qirqildi.

Shuning uchun ham keyingi yillarda bu muammoni hal etish borasida ko'plab tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha dasturlar ishlandi va ahvol ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Bu jihatdan, yoshlarni tarbiyalash, axloq - odob va ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda qishloqda ham, shaharda ham mahallaning roli katta bo'lgan va bo'lishi taqozo etiladi. Mazkur yo'nalishda yurtimizda tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash va izchil targ'ib qilish, xalqimizning eng yaxshi udum va an'analarini keng ommalashtirish, madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish choralarini davlat yo'li bilan qo'llab - quvvatlash vazifalari belgilangani bejiz emas.

Ushbu ezgu maqsad yo'lida ma'nan va jismonan barkamol, mamlakat taraqqiyoti va jamiyat rivojini ta'minlay oladigan yangi avlodni shakllantirish borasidagi intilishlar mujassam bo'lgan "O'zbekiston yoshlarining ma'rifiy qiyofasi - 2030" konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati yetildi. Bu borada dunyo va yurtimiz hayotidagi o'zgarishlar, o'tkazilayotgan islohotlar mazmun - mohiyati haqida keng ommaga vaqtida, ilmiy asoslangan ma'lumotlarni yetkazib borish maqsadida barcha tashkilotlarda "Ma'rifat soati" va har oyda kamida uch marta "Ma'rifat kunlari" tashkil etilishi kutilgan natijani berishi mumkin. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda aniq reja asosida muntazam o'tkaziladigan bunday tadbirlar o'z vaqtida, o'zaro erkin muloqot va fikr almashish tarzida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Keyingi vazifa, mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida va undan tashqarida ma'naviy - ma'rifiy tarbiya asoslarini kuchaytirish kerak. Ma'naviy - ma'rifiy ishlarni tashkil etishda "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi," degan qoidaga amal qilish zarur. Chunki hozirgi bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla va boshqa tashkilotlarning alohida - alohida faoliyat yuritishiga asoslangan tizim kerakli natijani bermayapti. Shuning uchun sohaga aloqador barcha tashkilotlarning o'zi va birgalikda bajaradigan vazifasini aniqlab olish, ma'naviy - ma'rifiy ishlarda

hamkorlikka asoslangan yagona tizimni ishlab chiqish vaqti keldi.

Ayni paytda, ma'naviy hayotimizga solinayotgan ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurashning samarali ma'rifiy usullarini ishlab chiqish, ma'naviy - ma'rifiy targ'ibot va tashviqot ishlarida yangi shakl va texnologiyalarni qo'llash zarurati ham kundan - kunga ortib bormoqda.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ma'naviy taraqqiyot tamoyillarini amalga oshirish jarayoniga xos barkamol avlodni tarbiyalash omillari” deb nomlangan va uning birinchi paragrafida “Milliy g'oya yangilanishi va ma'naviy hayotdagi innovatsion jarayonlar – barkamol avlodni tarbiyalash omili”** mavzusiga doir masalalar tadqiq qilingan.

Bugungi kunda har jihatdan yuksalayotgan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar samaradorligini ta'minlash, jamiyat hayotidagi yangilanishlar va o'zgarishlar uyg'unligiga erishish asosiy vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu serqirra jarayon dunyoda globallashuv jarayonlari tobora jadallashib, qarama - qarshiliklar, urushlar, ayniqsa ko'zga ko'rinmas, yashirin mafkuraviy kurashlar avj olgan bir paytda yosh avlod tarbiyasi ham dolzarblashib borayotgan davrda amalga oshmoqda.

Bu jihatdan hayot haqiqati va bugungi kunning talabi shundayki, agar biz mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan farzandlarimiz ong-u tafakkurini ezgu fikr va intilishlar bilan band etmasak, turli xil noma'qul g'oyalar ortidan ergashtiruvchilar istagancha topiladi. Ammo, shunday ma'naviy tahdidlarga to'la dunyoda yashayotganimizga qaramay, yoshlarda milliy ruhni kamolga yetkazish, undan yangi avlod qahramonlarini, o'z ishining mohir ustalarini tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish borasida sustkashlikka yo'l qo'yish hollari ham uchrab turibdi.

Har qanday mafkuraviy ta'sirlarga qarshi milliy g'oyani mustahkamlash, aholini g'oyaga qarshi g'oya bilan “qurollantirish” orqali kurashish samara berishini takrorlashga hojat qolmasa kerak. Shu sababli, bu vazifalar jamiyatimizning har bir faol a'zosi, olimlar, ijodkorlar, tashkilot va idoralar rahbarlari, jamoat tashkilotlari, xullas, o'zini shu yurt fuqarosi hisoblaydigan hammaning qalb amriga aylanishi shartligi tobora ravshan bo'lib bormoqda.

Barcha sohalar qatori, g'oya va mafkura jabhasiga katta e'tibor berilsagina, biz oldimizga qo'yilgan ulkan maqsadlarimizga erishamiz, mamlakatimizning barqaror, tinch hayoti ta'minlanadi. Demak, maqsad milliy g'oyani mustahkamlash ekan, milliy o'zlikni anglash, boy va shonli tariximizni chuqur o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlarni qo'llab -quvvatlash, soha olimlariga zarur sharoitlarni yaratib berish kerak.

Ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekistonning milliy g'oyasi insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik asosiga qurilmoqda. Jamiyatimiz mafkurasi insonning qadr - qimmatı, haq - huquqlari, farovon hayotini ta'minlashga, ezgu va insonparvar g'oyalarni singdirishga xizmat qiladi. Bugun davlatimiz va jamiyatimiz milliy g'oya va ma'naviy yangilanish borasida ham yangi bosqichga ko'tarildi, bir qancha amaliy natijalarga erishildi.

Ammo, har sohada bo'lganidek, milliy g'oyani yanada rivojlantirish va ta'sirchanligini oshirishga to'siq bo'layotgan muammolar ham talaygina:

**birinchidan**, mintaqamiz va butun dunyoda geosiyosiy vaziyat murakkablashib, odamlarning qalbi va ongini egallashga urinishlar kuchaygan davrda mamlakat daxlsizligi va xalqimiz hayotini har jihatdan himoyalashda, ayniqsa zararli g‘oyalarga qarshi immunitetni hosil qilishda zamon sur‘atidan ortda qolish kuzatilmoqda. Bu masala bilan shug‘ullanadigan ilmiy xodimlar tor doirada faoliyat yuritadi, olingan natijalar yo hayotdan ortda qolgan yoki amaliyotga yetarlicha tatbiq etilmagan;

**ikkinchidan**, aholining barcha qatlam va guruhlarida milliy g‘oya mazmun - mohiyati xususida yaxlit tushuncha va tasavvurlarning shakllanishi, amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissining rivojlanish jarayonlari talab darajasida emas, shuningdek, mafkuraviy tahdidlar mohiyatini yetarlicha anglamaslik, ularning xatari xususida bilim va tasavvurga ega emaslik natijasida milliy g‘oya omilidan g‘oyaviy himoyada samarali foydalana olmayapmiz;

**uchinchidan**, xalqimizning asrlar davomida shakllangan sharqona hayot tarzi, an‘ana va qadriyatlariga yo‘naltirilgan tahdidlarga qarshi mafkuraviy profilaktika ishlarining optimal va ta‘sirchan mexanizmi shakllanmagan; mamlakat fuqarolarining ongi va tafakkuridagi o‘zgarishlarning islohotlar va davr ehtiyojlariga hamohangligini ta‘minlashga mas‘ul idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo‘yicha yagona tizim ishlamayapti;

**to‘rtinchidan**, ma‘naviy - ma‘rifiy ishlarda, milliy g‘oyani targ‘ib qilish bo‘yicha tadbirlarda vatanparvarlik, fidoyilik, xalqparvarlik kabi ezgu g‘oyalar faqat shior darajasida qolmoqda. Bunda milliy g‘oya bo‘yicha umuminsoniy qonuniyatlar va yurtimizgagina xos bo‘lgan tamoyillarni uzviylikda amaliyotga kiritish mexanizmlari joriy etilmagan; davlatimizni yuqori rivojlangan mamlakatlar safida ko‘rishni istaydigan va fuqarolik mas‘uliyatini chuqur his qiladigan, innovatsion va kreativ fikrlashga qodir barkamol insonlarni tarbiyalashning milliy g‘oya asosidagi konseptual asoslari ishlab chiqilmagan;

**beshinchidan**, asrlar davomida xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirishga xizmat qilgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, an‘analar va urf–odatlarining qadrsizlanishi kuzatilmoqda. Aynan shu omillar jamiyat hayotida dunyoviylik va diniy dunyoqarashning sog‘lom muvozanatini ta‘minlaydi, o‘zining tarbiyaviy ta‘siri bilan ajralib turadi.

Yana bir masala, uzluksiz ta‘lim tizimida “Milliy g‘oya” turkumidagi fanlarga e‘tiborning kamaygani, ularning ta‘sir kuchi yetarli darajada bo‘lmaganligi bois, jamiyatimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlarining samaradorligi sezilmayapti. Afsuski, keng dunyoqarash va go‘zal ma‘naviyatni shakllantiradigan g‘oyaviy tarbiya mexanizmining to‘liq ishlamasligi sohadagi natijalarga ta‘sir o‘tkazmoqda.

Milliy ma‘naviyatimizni mustahkamlashga, milliy g‘oyani insonlar qalbi va ongiga singdirish borasidagi faoliyatni umumiy tahlil qilganimizda, yutuqlar bilan birga, ayrim muammolar ham saqlanib turibdi. Ayniqsa, yoshlarimizni begona g‘oya va qarashlardan himoya qilish, ularda vatanga, uning tarixi va kelajagiga sodiqlik va daxldorlik hissini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarlicha samara berayotganini alohida ta‘kidlash zarur.

Zamonaviy dunyoga xos siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur o'rganib, tahlil qila oladigan, o'z faoliyatini butunlay yangi shaklda tashkil qilgan siyosiy tahlilchi va ekspertlar yetarli emas. Shunday ekan, yangi fikrli olimlarni tayyorlash, ma'naviy hayotimizga tahdid soladigan holatlarga qarshi omillarni ishlab chiqadigan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni ko'paytirish zarur.

Aytilganlarni umumlashtiradigan bo'lsak, jamiyatimizda bunyodkor milliy g'oyani mustahkamlashga qaratilgan faoliyatni butunlay yangi pog'onaga olib chiqish vaqti keldi. Ushbu hayotiy ehtiyoj tufayli 2019 yilning aprelida Milliy g'oyani rivojlantirish xususidagi Prezident Farmoyishi e'lon qilindi. Bu yangi davlat mafkurasini yaratishga urinish yoki oldingi milliy istiqlol mafkurasini zamonga moslashtirish emas, balki g'oyani yangilash, g'oyaviy yangilanish sari qadamdir.

Shu bois, faoliyat davomida asosiy e'tibor xalqimiz tinchligi va totuvligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi, milliy an'ana va urf - odatlarning barhayotligini asrab - avaylash, o'sib kelayotgan farzandlarimizni ham ana shu milliy ruh va milliy g'oya negizida tarbiyalashga qaratilayotgani aslo bejiz emas.

Bu maqsad yo'lida mas'ul idoralar tomonidan qator ishlar olib borilmoqda, mustaqil fikrli, o'z qarashlari va e'tiqodida mahkam, g'oyaviy ongi shakllangan shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqilib, yosh avlod tarbiyasi borasida amaliy harakatlar qilinmoqda.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Ma’rifatli jamiyatni barpo etish – ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash tamoyilining muhim imkoniyati”** deb nomlanib, unda keyingi yillarda jamiyatimizni ma'rifiy jihatdan yanada taraqqiy ettirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo'nalishdagi faoliyatni samarali tashkil etish masalalari tahlil etilgan.

Tadqiqotimiz davlatimiz rahbarining “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli fundamental monografiyasida ma'naviy taraqqiyot masalalari va ma'rifatli jamiyatni barpo etish borasidagi ishlarga davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida alohida bo'lim ajratilgani mazkur yo'nalishdagi faoliyatni yangi bosqichga ko'targanidan dalolat beradi.

Prezidentimizning ushbu sohani tubdan takomillashtirishga qaratilgan ikkita qarori qabul qilindi va shu asosda ma'naviy - ma'rifiy jarayonlarni tashkil etish va muvofiqlashtirishning yaxlit tizimi shakllandi. “Yangi O'zbekistonning 2022–2026 - yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonda “Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish vazifalari” borasidagi maqsadlarning aniq - tiniq belgilab berilgani esa bu jabhadagi ishlarni yanada jadallashtirdi.

Ayni paytda, mazkur sohani davlat siyosatining alohida yo'nalishiga aylanishi jarayonining huquqiy asoslarini mustahkamlash, ma'naviyat jabhasiga doir zarur qonun hujjatlarini ishlab chiqish va bunda xalqaro hamda milliy tajribadan unumli foydalanish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Shuni hisobga olgan holda, xalqimiz, yoshlarimizni ma'rifat asosida tarbiyalash va tafakkurini ilm ziyosi bilan yoritish vazifasi qo'yildi. Eng dolzarb mavzulardan biri yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan chora - tadbirlar majmuasi ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Bu chora - tadbirlar

sirasiga mavzuga doir davra suhbatlari, turli uchrashuvlar, treninglar, mahallalar va guzarlarda aholi bilan muloqotlar kiradi. Bunday tadbirlarda asosiy e'tibor terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashish, fuqarolarda vatan kelajagiga mas'ullik tuyg'usini mustahkamlashga qaratiladi.

O'quvchi va talaba yoshlarni adabiyot va san'atga, sportga, sog'lom turmush tarziga chorlash kabi ma'naviyat - ma'rifatga doir yo'nalishlarni uzluksiz ta'lim tizimida yanada taraqqiy ettirish davom ettirilmoqda. Barcha oliy ta'lim muassasalari yoshlarda yuksak estetik did va kasbiy etikani, tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqishi va amalda qo'llashi davr talabiga aylangan.

Respublikaning ko'p millatli aholisi o'rtasida birdamlik, o'zaro hurmat va mehr - oqibat, vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, jamiyatimizda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlikning barqarorligiga erishishda Respublika baynalmilal milliy madaniy markazining qayta tashkil etilgani katta ahamiyatga ega bo'ladi. Markazning to'laqonli faoliyat yuritishi uchun barcha imkoniyatlar ishga solinib, moddiy - texnik bazasini mustahkamlash choralari ko'rildi.

Ta'lim - tarbiya tizimining eng muhim bo'g'inlaridan bo'lgan oila va mahallaga ustuvor ahamiyat qaratilib, hukumatning tegishli qarori bilan "mahalla va oila" ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi, Mahalla va oilani qo'llab - quvvatlash vazirligini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Yangidan tashkil etilgan O'zbekkino agentligiga mamlakatimizda bo'layotgan turli sohalaridagi o'zgarishlar, islohotlar, yaratuvchanlik jarayonlarida faol ishtirok etayotgan zamondoshlarimizni, ulardagi fidokorlik va jasoratni aks ettiradigan filmlar yaratish vazifasi qo'yildi.

Aholi, ayniqsa yoshlar ongiga vatanga sodiqlik, uning taqdiriga, bugungi ijtimoiy-siyosiy voqelikka daxldorlik tuyg'ularini singdirish, zararli g'oya va mafkuralarga qarshi mafkuraviy immunitet hosil qilish borasida juda ko'p gapirilsada, ko'rilayotgan choralar kerakli natijalarni bera olgani yo'q. Afsuski, fuqarolarimizda islohotlarga daxldorlik hissi to'liq shakllanmagan. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir qator choralar amalga oshirilishi zarur. Jumladan, aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirish, huquq sohasidagi tushunchalarini boyitishda hamma vositalar, ayniqsa, internet tarmog'idan samarali foydalanish qator muammolarga yechim bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi **"Ma'naviy taraqqiyot tamoyillari va barkamol avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar va vijdon erkinligi"** deb nomlangan. Unda bugungi kunda yurtimizga xos tinchlik, birdamlik, ezgulikka intilish, millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglik tamoyillarining barkamol avlod tarbiyasiga ta'siri masalalari o'rganilgan.

Yurtimizda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. Bir tan, bir jon bo'lib yashab kelayotgan barcha millat va elatlar yagona vatan uchun, uning taraqqiy topishi, dunyodagi huquqiy demokratik davlatlar qatoridan munosib o'rin olishi yo'lida mehnat qilmoqdalar. Shu boisdan millatlararo totuvlik va bag'rikenglik xalqimizning bosh g'oyasiga aylanib, o'sib kelayotgan avlodni shu insoniy g'oyalar, vatanga muhabbat va sadoqat ruhida ulg'aytirish siyosatimizning ustuvor yo'nalishi

hisoblanadi.

Davlatimiz bosh qonuni va boshqa huquqiy hujjatlarda mamlakatimiz fuqarolari millati, tili, dini, ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar teng huquqli ekanligi belgilab qo'yilgan. Barcha millat vakillari uchun o'z tili, diniy e'tiqodi va an'alarini asrash, rivojlantirish va davom ettirish uchun shart - sharoit yaratildi. Hozir respublikamizda 16 ta diniy konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritadi. Ta'lim yetti tilda olib borilayotgan bo'lsa, o'ndan ortiq millat tillarida gazeta va jurnallar chop etiladi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'n ikki tilda eshittirishlar tayyorlamoqda. 140 ga yaqin milliy - madaniy markazlar faoliyat yuritadi.

Bu boradagi islohotlar natijasida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida salmoqli yutuqlarga erishildi, vijdon erkinligini ta'minlash bo'yicha qator amaliy tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatini aks ettiradigan konsepsiya 2019 yilda tasdiqlanib, amaliyotga joriy qilindi. Madaniyat va turizm vazirligi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi.

Keyingi yillarda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik sohasiga doir ellikdan ziyod qonun va qirqaqa yaqin qarorlar qabul qilindi. Ushbu meyoriy - huquqiy hujjatlar tili, dini, millatidan qat'i nazar fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini ta'minlashga, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini mustahkamlashga qaratilgan.

Bugungi notinch dunyoning turli burchaklarida gohi yashirin, gohi oshkor urushlar, diniy va milliy nizolar, mafkuralar to'qnashuvlari avj olmoqda. Bunday murakkab sharoitda yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan turli millat va elatlar o'rtasida do'stlik, hamfikrlik va birdamlikni mustahkamlash vazifasi tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Shu bilan bir qatorda qadimiy an'alar, milliy o'zligimiz va muqaddas diniy e'tiqodimizni asrab - avaylash, bebaho tarixiy merosni chuqur o'rganish hamda uning har bir fuqaro qalbidan joy egallashiga erishishdek dolzarb masalani ko'zdan qochirib bo'lmaydi. Bu mavzuga alohida e'tibor qaratilib, yurtimizning turli nuqtalarida ilmiy - madaniy markazlar, muzeylar, diniy yo'nalishdagi maktablar tashkil qilinmoqda, har bir hududdagi muqaddas qadamjolar davlat himoyasiga olinib, ziyoratgohlar obod qilinmoqda. Ayniqsa, dunyoga mashhur, islom olamida taniqli bo'lgan ulamo va islom olimlarining maqbaralarini obodonlashtirish ishiga katta ahamiyat qaratildi.

Mamlakatimizda diniy erkinlik sohasida olib borilayotgan ijobiy o'zgarishlarning jahon miqyosida e'tirof etilayotganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, 2020 yil 13 oktabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasi sessiyasidagi saylovlarda tarixda birinchi marta O'zbekiston uch yil muddatga tashkilotning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zolikka saylandi. Quvonarlisi, bu saylovda eng ko'p ovoz olgan mamlakat O'zbekiston bo'ldi, BMT ga a'zo davlatlarning 169 tasi (ular 193 ta) bizga ovoz bergan. Bu qisqa muddatda erishgan yirik g'alabalardan desak, yanglishmaymiz.

Fuqarolarimizning diniy e'tiqod erkinligi kafolatlanib, diniy ilmlar olishiga barcha imkoniyatlar yaratilgan. Sohoni bilim va malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida diniy ta'lim bo'yicha ham besh bosqichli uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi. Endi diniy ilmlarni o'rta, oliy ta'lim, magistraturada o'rganish, ilmiy izlanishlarni esa doktoranturada davom ettirish mumkin. Bu kabi keng miqyosdagi yangilanishlar xalqimizni oldimizga qo'yilgan ulug'vor maqsadlar yo'lida birlashtirishga, hayotimizdagi tinchlik va totuvlik barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Ko'p millatli va ko'p konfessiyali xalqimiz o'rtasida birdamlikni, jamiyatimizda barqarorlikni ta'minlash bugungi xavfsizlikka tahdidlar tobora avj olib borayotgan davrda, yanada ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Dissertatsiyaning **“Ma'naviy taraqqiyot tamoyillarini amalga oshirishning ijtimoiy mexanizmi va uni optimallashtirish imkoniyatlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobi va uning birinchi paragrafida **“Ijtimoiy sohaga doir islohotlar – ma'naviy taraqqiyot tamoyillarini amalga oshirishning optimal mexanizmi”** mavzusiga doir masalalar tadqiq qilingan.

Har jihatdan yuksalayotgan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlislohotlar ijtimoiy sohani ham chetlab o'tayotgani yo'q va bu boradagi yangilanishlar ma'naviy taraqqiyot tamoyillarini amalga oshirishning muhim omiliga aylandi. Mazkur sohadagi islohotlarning samaradorligini ta'minlash, jamiyat hayotidagi ma'naviy - ma'rifiy yangilanishlar va o'zgarishlar uyg'unligiga erishish mazkur strategiyani samarali joriy etish bilan bog'liq asosiy vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu sohadagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad – mamlakatimizni erkin fuqarolik jamiyatiga, inson huquq va erkinliklari ustuvor bo'lgan ijtimoiy davlatga aylantirishdan iboratdir. Ana shunday ezgu maqsadgina jamiyatning yuksak ma'naviyatli, ma'rifiy rivojlangan yangi ijtimoiy makonga aylanishiga yordam berishi shubhasiz

Shu maqsadda xalqimizning yuksak darajadagi farovon va baxtli turmush tarzi, shuningdek, aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar va ijtimoiy himoya tamoyillari olg'a surilmoqda. Hozirgi kunda sohada olib borilayotgan keng ko'lamlislohotlar tarixda hech kuzatilmagan. Aholi bilan uning orasida turib ishlash, himoyaga muhtoj qatlamni har tomonlama qo'llab - quvvatlab, kambag'allikka barham berish bo'yicha aniq dasturlar asosida ish olib borilmoqda. Natijada ushbu toifadagi shaxslarga moliyaviy ko'mak berish maqsadida davlat budjetidan ajratiladigan mablag' miqdori tobora oshirilib, ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni joriy yilda oldingi yillarga qaraganda 1,5 barobarga oshirildi. Hozirgi kunda aholi orasidan haqiqiy ehtiyojmand oilalarni aniqlashning shaffof tizimi yaratilib, ularning muammolari joyida, hatto, uyma – uy yurib o'rganilmoqda. Xotin - qizlar va boquvchisini yo'qotgan bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslarga moddiy yordam berishning turli shakl va ko'rinishlari amalga oshirilmoqda.

Ammo, kun tartibida hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar borki, ularni yechish davlat ahamiyatidagi vazifadir. Jumladan, yurtimizdagi ishsiz fuqarolarni ish bilan ta'minlash masalasi qay ahvolda, nima uchun yurtdoshlarimiz orasida ish qidirib xorijga chiqib ketayotganlar soni ko'p, ularni shu yerda band qilish uchun nimalar qilish kerak, degan savollar dolzarbligicha qolmoqda. Bu

yo'lda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar asosida amaliy ish olib borilmoqda. Ayniqsa, kelajak egalari bo'lgan yoshlarni tadbirkorlikka qiziqtirish, ulardagi tashabbuskorlik qobiliyatini yuzaga chiqarish, o'z biznesini yo'lga qo'yishi uchun ularni imtiyozli kreditlar bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Qolaversa, so'nggi yillarda ehtiyojmand oilalar farzandlariga ta'lim olish va sog'ligini tiklash bo'yicha ham amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Tibbiy yordamga muhtoj, nogiron yoki og'ir xastalikka chalingan bolajonlar davlat diqqat - e'tiboridan chetda qolgani yo'q, qizlarga, ayniqsa chekka hududlarda yashaydigan, ota onasidan ajralgan qizlar uchun oliy ta'limga kirish uchun ma'lum imtiyozlar berilgani, ularni kasb - hunarga o'qitish, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratilishi kabi qator ishlarni sanashimiz mumkin.

Yuqorida aytilgan aholining ma'lum qatlamlarini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish, sohada natijadorlikni yuksaltirish, tizimga samarali mexanizmlarni joriy etish bo'yicha yangi taklif va g'oyalarni bera oladigan ilmiy tadqiqot ishlarini ko'paytirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Ushbu yo'nalishda xalqimiz orasida sog'lom va faol turmush tarzini targ'ib qilish, tibbiy va ijtimoiy himoya ko'rsatuvchi muassasalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, bu turdagi xizmatlar uchun tibbiy jihoz va buyumlar, reabilitatsiya vositalari ishlab chiqaradigan korxonalarni modernizatsiyalash kabi qator vazifalar yanada dolzarblashmoqda.

To'rtinchi bobning ikkinchi paragrafi "Ma'naviy taraqqiyot tamoyillari amaliyotida sog'lom jamiyat va zamonaviy yoshlarni tarbiyalash" deb nomlangan va unda jadal rivojlanayotgan mamlakatimizda davlatimizning doimiy e'tibor markazida turgan aholini sog'lomlashtirish va bu jarayonda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu yo'lda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora - tadbirlar to'g'risida"gi Farmon va shu asosda qabul qilingan "2019 – 2025 - yillarda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi"da ko'zda tutilgan aniq maqsadlarni amalga oshirish uchun jadal ish olib borilmoqda. Ayniqsa so'nggi yillarda dunyoni tashvishga solgan pandemiya bu sohada qilinishi zarur bo'lgan ishlarni ro'y - rost ko'rsatib berdi. Sharq allomasi Imom Moturudiyning "Tiriklik hikmatini sog'likda, deb bilgin", degan fikri bugun o'z haqiqatini ko'rsatdi. Bunda kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish zarurroq ekani yaqqol ko'rindi va shu sababdan ham tibbiyot profilaktikasini yangi bosqichga olib chiqish zarurati anglab olindi. Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu sohada insonlarga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi birlamchi muassasalardan tortib, yuqori tuzilmalarda tibbiy xizmatlar sifatini keskin ko'tarish, tibbiy xizmat turlarini ko'paytirish, sohaga jahondagi ilg'or tajribalarni tatbiq etish kabi kechiktirib bo'lmas islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlardan ko'zlangan maqsad esa "Hamma narsa inson uchun" tamoyilini amalga oshirish va albatta, xalqimiz, farzandlarimiz sog'ligini asrashdir.

O'tgan davr mobaynida sog'liqni saqlash va xalqimizga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini keskin ko'tarish borasida muayyan natijalarga erishildi. Sohadagi

islohotlar bosqichma bosqich olib borilib, huquqiy asoslari ishlab chiqilmoqda. Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, tibbiy xizmat sifatini yuksaltirish xususida qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Birinchi galda joylarda shahar va qishloq oilaviy poliklinikalarini bunyod etish va ularda birlamchi tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini joriy qilish kabi dolzarb vazifalar bajarilmoqda, ehtiyojmand aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan markazlar tarmog‘i yaratilmoqda.

Yana bir davlat ahamiyatidagi masala – onalik va bolalikni himoya qilish borasida ham qator amaliy vazifalar qo‘yildi. Bu masala uzoq yillardan beri davlat dasturlariga ham kiritilib, aholi reproduktiv salomatligini asrash kun tartibimizdagi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, bolalarda nasliy yoki irsiy kasalliklar bilan tug‘ilish holatlarining oldini olish, kasallikni ona qornidayoq aniqlash va davolash maqsadida hamma hududlarda skrining markazlari tashkil qilingan.

Aytilgan vazifalarni amalga oshirish xalqimizning salomatligini kafolatlash, kasalliklarni profilaktika qilish hamda milliy sog‘liqni saqlash tizimini yuqori darajalarga olib chiqishni ta‘minlaydi. Buning uchun sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish, tibbiy turizmni rivojlantirish va sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish choralarini ko‘rish, shuningdek, davlat va xususiy korxonalar sherikligini kuchaytirish kabi talablarni bajarish lozim.

